

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

7- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Soliyeva Maxsuda Roziqovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini tashkil etishning samarali jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ona tili va o'qish savodxonligi, texnologiya, grammatik, kommunikativ, metodik, milliy dastur.

Аннотация: В данной статье речь пойдет об эффективных аспектах организации предметов родного языка и грамотности чтения в начальных классах.

Ключевые слова: родной язык и грамотность чтения, технология, грамматика, коммуникативная, методическая, национальная программа.


Abstract: native language and study in elementary grades in this article about the effective aspects of the organization of literacy disciplines are mentioned.

Key words: native language and reading literacy, technology, grammar, communicative, methodical, national program.

Hozirda rivojlanib borayotgan mamalakatimizda ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarda yangi darsliklar va yangi metodik qo'llanmalardan foydalanish ustuvorlik kasb etmoqda. Yaqin vaqtlarga qadar o'qish va ona tili fanlari alohida tashkil etilar edi. Bugungi kunga kelib, boshlang'ich sinflarda ikkala fanlar umumiyashtirilib ona tili va o'qish savodxonligi fani sifatida tashkil etildi. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida til o'qitishning o'rganuvchiga asoslangan yondashuvlar turkumidan foydalaniladi. Bu yondashuv tilning real hayotiy vaziyatlatda qo'llanishi va ana shu vaziyatlarda qo'llanishi va ana shu vaziyatlarda o'rganuvchi sezadigan ehtiyojlarni qondirishga asoslanadi. Bunda ildindan tanlab olingan bo'lishsizlikni ifodalash, bo'glovchilarni qo'llash kabi grammatik

qurilmalar va kechirim soʻrash, manzilni tushuntirish, rozilik yoki norozilikni ifodalash kabi muloqot birliklarini mazmunga asoslangan topshiriqlar orqali oʻrgatishga harakat qilinadi. Ushbu darslik oʻquvchilarni turli hayotiy vaziyatlarda grammatik jihatdan toʻgʻri va kommunikativ jihatdan erkin soʻzlay oladigan darajaga olib chiqishni maqsad qilib qoʻygan. Oʻquvchining tilni qoʻllashdagi real ehtiyoji (ijtimoiy muloqot, akademik taʼlim) hisobga olingan va zaruriy lingvistik qurilmalar turli nutqiy vaziyatlarda berilgan. Ona tili-nutq, oʻqish va yozish sohasidagi koʻnikma va malakalar oʻquvchilar oʻquv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola oʻqish koʻnikmalarini egallash bilan birinchi navbatda, oʻz ona tilini oʻrganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir.

Umuman olganda taʼlim metodlari quyidagi sxema orqali ifodalaymiz:



Ushbu taʼlim tuzilmasi doirasida oʻquvchi asosiy ishtirokchi sifatida markaziy oʻrinni egallaydi. Dars davomida turli usullardan foydalanish oʻqituvchilarni izlanishga, oʻquvchilarni esa erkin fikrlashga undaydi, oʻz-oʻzini takomillashtirishga yordam beradi. Oʻquvchilar oʻz fikrlarini erkin ifoda eta oladigan, oʻzini mustaqil tuta oladigan va mavzuni toʻliq anglay oladigan uslublar tanlanishi kerak. Hozirda yuzdan ortiq interaktiv usullar mavjud boʻlib, ularning koʻpchiligi sinovdan oʻtgan va ijobiy natijalar bergan.

“Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom”, “Taqdimot”, “Blits soʻrovi”, “Muammoli vaziyat” kabi keng tarqalgan usullardan foydalanish orqali samarali dars natijalariga erishish mumkin. Darsning ayrim boʻlimlarida oʻqitilayotgan mavzuni oʻrganish uchun

Cinquain, Reverse Test va Wheel of Mind kabi usullardan foydalaniladi. “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Konseptual jadval”, “Niloufar Guli” kabi grafik organayzerlar hamda “Tushuncha tahlili”, “T-jadval” kabi metodologiyalar. . Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charqpalak”, “FGMU”, “Klaster” uy vazifasini bajarish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, Chain Chain va BBB usullari yanada qiziqarli va interaktiv o'rganishni rivojlantirish uchun an'anaviy dars tuzilmalarini almashtiradi. samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari «Ha... yo'q», «Ta'rif egasini top», «Men kimman?», «Domino», «Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha», «Sirli sandiqcha metodi», «Harfni his qilish» metodlari kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. O'quvchilarga har darsda bir xil dars o'tish ularning zerikishiga olib keladi va mavzuga bo'lgan e'tiborini pasaytiradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun dars mashg'ulotlari jarayonida turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini oshiradi. Masalan o'quvchilarga «Bo'g'in» mavzusini o'tayotgan o'qituvchi «Bo'g'inlar zanjiri» metodidan foydalanishi mumkin. Bunda birinchi aytilgan so'zning oxirgi bo'g'ini keying so'zning birinchi bo'g'iniga to'g'ri kelishi kerak bo'ladi. Namuna: maktab – tabrik; rassom – somsa va shu kabi zayilda davom etadi. Bu metoddan o'quvchilarda o'tilayotgan yangi mavzuni mustahkamlash bilan birga ularning tezkor fikrlashlari, so'z boyligini aniqlash maqsadida ham foydalansa bo'ladi.

Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, bundan ko'rinib turibdiki ona tili va o'qish savodxonligi bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida ro'l o'ynaydi. Badiiy adabiyotlarni, gazeta va jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili va o'qish savodxonligi boshlang'ich sinflarada asosiy o'rinlarni egallar ekan, har

bir o'quvchida ushbu fanga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur. Umumiy o'rta ta'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturimizda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

- O'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

- Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv uslubiy majmualarini yaratish va o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazo. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir quyidagi 4 ko'nikmaga qaratiladi:

- O'qib tushuntirish
- Tinglab tushuntirish
- Nutq so'zlash
- Yozish, grammatik savodxonlikni shakllantirish

Sirli quti texnikasi: Sirli quti usuli mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va o'qituvchi hech qanday ma'lumot bermasdan doskada to'rtta mavzu nomini ko'rsatadi. Masalan, so'zlar guruhi kontekstida mavzular ot, sifat, son va fe'l bo'lishi mumkin. Ushbu so'z turkumlariga tegishli ma'lumotlar va misollar maxfiy qutiga joylashtirilgan. Keyin o'quvchilar ma'lumotni tegishli so'zlar guruhiga biriktiradilar. O'qituvchi bajarilgan ishlarni baholaydi va mukofot kartalari bilan taqdirlaydi. Eng ko'p mukofot kartalarini to'plagan guruh g'olib deb e'lon qilinadi, mantiqiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi va faol ishtirokni rag'batlantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar o'quvchilarning savodxon bo'lishiga, DTS talablariga qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim rol o'ynaydi. Dars mashg'ulotlari davomida shu va shu kabi metodlardan foydalanish o'tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni o'zlashtirishga katta yordam beradi. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda albatta o'zining samarasini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matchonov S. “Ona tili o’qitish metodikasi” Toshkent 2009-yil 2.
- Azimova I., Mavlonova K. “Ona tili va o’qish savodxonligi” metodik qo’llanma 2021-yil
3. Usmonov N. “Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini milliy g’oya targ’ibotiga tayyorlashning pedagogik va texnologik asoslari” Toshkent 2012-yil